

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.S.Sharipova

Bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati..... 6

Sh.K.Xujamberdiyeva

Maktabgacha yoshdag'i bolalarni insoniy fazilatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'rni..... 11

M.B.Artikova, M.M.Mutallibjonov

Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalar tadqiqi 16

M.M.Kaxarova, N.E.Yusupova

Ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ... 23

M.M.YakubbayevDevelopment of lingvocultural competence of students in the process of teaching
german language 29**J.A.Yuldashev**Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga aksiologik yondashuvni joriy etishning
metodik xususiyatlari..... 34**X.T.Nishonova**Methods of developing students' lexical competence through comics in English lessons in
elementary grades 38**Sh.M.Robilova**

O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik modeli..... 43

U.S.Do'sanovOliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini
qo'llash metodikasi..... 47**X.X.Umarov**

Влияние высокоинтенсивной тренировочной нагрузки на организм юных гимнастов 51

D.K.KarimovМониторинг эффективности корреляционной связи спортивной специализации от
типов телосложения у юных акробатов 55**Z.G.Gapparov**

Исследование новых технологий синхронизации движения в синхронном плавании 61

M.N.NasritdinovaArtpedagogika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak pedagoglar badiiy-ijodiy kompetentligini
rivojlantirish..... 67**M.G.Zaylobidinova**Nodavlat ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning
pedagogik omillari, Xitoy tajribasi 72**D.K.Baydjanova**

Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni 78

I.A.RaxmonovBoshlang'ich sinf o'quvchilarida hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishni
pedagogik muammosi..... 82

IQTISODIYOT

M.K.Abadov

Possible consequences of the refusal to switch to a digital currency in Azerbaijan 85

FALSAFA

M.A.Mamatov

So'fiylik – gumanistik ta'limot 90

Sh.O.Ahrorova

Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni 98

D.Y.Qambarova

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichda ijtimoiy munosabat mezonlari 102



УО'К: 37.035:614.253

**BIOETIK BILIM TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI, UNI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURATI**

**СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ БИОЭТИЧЕСКОЕ ЗНАНИЕ, ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ
НЕОБХОДИМОСТЬ В ЕГО ФОРМИРОВАНИИ**

**THE CONTENT OF THE CONCEPT OF BIOETHICAL KNOWLEDGE, THE
PEDAGOGICAL NEED FOR ITS FORMATION**

Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich¹ 

¹Farg'onan davlat universiteti professori, p.f.d.

Sharipova Barno Salimovna² 

²Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi

Annotasiya

Mazkur maqolada bugungi kunda bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati hamda bioetikaning zamonaviy madaniyatning murakkab tarkibiy qismi bo'lib, va biotibbiy texnologiyalar yutuqlarining axloqiy oqibatlarini o'rganuvchi fanlar ilm-fan to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье раскрываются содержание и сущность понятия биоэтического знания, педагогическая необходимость его формирования, а также биоэтики, которая является сложной составляющей современной культуры, и наук, изучающих этические последствия достижений науки и биомедицинские технологии описаны в этой статье.

Abstract

In this article, the content and essence of the concept of bioethical knowledge, the pedagogical necessity of its formation, as well as bioethics, which is a complex component of modern culture, and the sciences that study the ethical consequences of the achievements of science and biomedical technologies, are described in this article.

Kalit so'zlar: bioetik bilim, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, genetika, ilm-fan, barkamol inson, ta'lif standartlari, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: биоэтическое знание, новые разработки, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, генетика, наука, совершенный человек, образовательные стандарты, гражданское общество, научно-методология.

Key words: bioethical knowledge, new development, modern outlook, scientific-theoretical views, genetics, science, perfect person, educational standards, civil society, scientific-methodology.

KIRISH

Bioetika zamonaviy madaniyatning murakkab tarkibiy qismi bo'lib, ilm-fan va biotibbiy texnologiyalar yutuqlarining axloqiy oqibatlarini o'rganuvchi, tahlil qiluvchi, insoniyatning jamiki "tiriklik"ga oqilona munosabatini ifodalaydigan ta'lilot. Jamiyat taraqqiyotiga bioetikaning ta'sirini tahlil qilish, bioetikaning mohiyatini tushunish va uning ilmiy, falsafiy, axloqiy bilimlar tizimida tutgan o'rnnini tushunishdan boshlanadi.

Axloq insonning xulq-atvorini va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi dastlabki mexanizmlardan biridir. Axloq alohida fan-etika o'rganadigan sohani tashkil etadi. Mazkur fanga buyuk yunon faylasufi Aristotel (Arastu) asos solgan. Odamlar jamoasida ijtimoiy munosabatlar murakkablashib borishi natijasida u yoki bu axloq normalari, qoidalalarini insonning kundalik hayotidagi real sohalarga tatbiqan muayyanlashtirish ehtiyoji tug'ildi. Shu tariqa etika sohasida amaliy tadqiqotlar paydo bo'la boshladi, amaliy etikaning turli yo'nalishlari: siyosiy etika, jurnalist etikasi, biznes etikasi va h.k. shakllandi.

Etikaning eski muammolarini yangidan tadqiq qilish, hayot (uning paydo bo'lishi, uni quvvatlash va uzaytirish) va o'lim bilan bog'liq ko'pgina an'anaviy muammolarni qayta ko'rishga qattiq ehtiyoj tug'ildi. Hozirgi zamon amaliy etikasi mana shu masalalar bilan shug'ullanadi.

PEDAGOGIKA

Bugungi kunda amaliy etika biznes va siyosat sohalariga kirib kelmoqda, tabiatga munosabat, hayvonlarning huquqlarini himoya qilish, ochlikka qarshi kurash muammolari bilan bevosita shug'ullanmoqda.

Etika aynan amaliy muammolar sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xo'sh, buning sabablari nimada? Asosiy sabablari – inson bilimlari texnologik imkoniyatlarning o'sishida.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kompyuter texnologiyalari paydo bo'lishi bilan ishchilar o'rniغا robotlardan foydalanish hamda robotlarga odamlarning munosabati muammolari ko'ndalang bo'ldi. Shuningdek jahon oziq-ovqat va xomashyo resurslarini taqsimlash, aholining o'sishi singari muammolar ham mavjud. Shuning uchun ham etikaga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Yana bir sabab – tabiiy muhitga insonning aralashishi global halokatlar xavfining kuchayishi. Mazkur muammo noan'naviy yechimlar topishni talab qiladi. Yangi muammolar, muammolarning yangi ko'lami yangicha yechimlarni taqozo etadi.

Amaliy etika, so'zning keng ma'nosida, etika tushunchalari va nazariyalarini muayyan, murakkab va ko'pincha juda dramatik vaziyatlarga tatbiq etish demakdir. Unga kazuistika ("casus" - tasodif so'zidan), ya'ni cheksiz tasodiflar yoki pretsedentlarni ko'rib chiqish deb qarash ham mumkin. Ammo unga yanada kengroq - chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lgan va inson haqida tubdan yangicha tasavvurlarni shakllantiradigan yangi yo'nalish deb qarash uchun barcha asoslar mavjud.

Amaliy etika deganda, tor ma'noda, amaliyot ta'sirida yuzaga kelgan va amaliy etikaning alohida turlari (siyosiy etika, ekoetika, bioetika, jurnalist etikasi va sh.k.) paydo bo'lishiga olib kelgan hodisa tushuniladi. Bioetika, klassik tibbiyot etikasidan farq qiluvchi yangi yo'nalish sifatida, XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi va jadal rivojlana boshladi.

"Bioetika" tushunchasi insonning butun tiriklikka munosabatini ko'rib chiqadigan masalalar sohasini nazarda tutadi. Biologiya va tibbiyot sohasidagi bilimlarning taraqqiyoti, tibbiyot yangi imkoniyatlarining rivojlanishi an'anaviy etika ilgari duch kelmagan muammolarni keltirib chiqardi. Rivojlanish natijasidan bioetika har ikki yo'nalish shakllandi. Birinchi yo'nalish insonga ma'naviy munosabat masalalarini ko'rib chiqadi va bu yerda u tibbiyot etikasi bilan tutashadi. Ikkinci yo'nalish esa insonning hayvonlarga munosabati etikasini, ya'ni: hayvonlardan turli maqsadlarda foydalanish masalalarini o'rganadi, bu yerda u jahon miqyosidagi atrof muhit etikasi bilan tutashadi. Bugungi kunda bioetikada birinchi yo'nalish ayniqsa jiddiy tashvish uyg'otmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida transplantologiya, irsiy diagnostika, irsiy injeneriya va klonlash rivojlana boshladi. Tibbiyot texnikasi o'z rivojlanishida shunday darajaga yetdiki, vrach ilgari o'lishi muqarrar bo'lgan bemorlarning hayotini endilikda sun'iy ravishda saqlab tura oladi. Texnika sohasidagi yutuqlar bemorlar, o'lim tushagida yotganlar va nogironlarning huquqlarini yuridik jihatdan asoslashning yangi-yangi shakllari va usullari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Etikaning boshqa muammolardagi ishtiroki ham kengaydi - siyosatchilar o'z faoliyatida etika qoidalariiga tobora ko'prok tayanmoqdalar, jamoatchilik biznes va reklama ustidan etik nazoratni o'rnatishni talab etmoqda, ekologiya esa atrof muhit bilan munosabatlarni tartibga solishda etika qoidalariга rioya etish zarurligini ko'rsatmoqda.

NATIJALAR

Bioetika insonning turli tiriklik shakllariga, hayvonlarga munosabatini ko'rib chiquvchi amaliy etika nuqtai nazaridan inson xulq-atvorining axloqiy jihatlariga taalluqli bo'lgan falsafiy tushuncha insonning o'zini qurshagan muhit oldidagi mas'uliyati, insonning hulq-atvori va boshqa insonga munosabati deb tushuniladi.

Bugungi kunda butun dunyoda hayotda, jamiyatning turli sohalarida bioaxloq qoidalariiga amal qilish bo'yicha bahslar ketmoqda. Qadimgi yunon tilidan olingan bioetika (inson faoliyatining hayotda, tibbiyot va biologiyada hayvonlarga nisbatan munosabati bo'lib, ilk marotaba mazkur tushunchani 1927-yili Frits Jaxr tilga olgan bo'lsa, 1969-yili amerikalik onkolog va biokimyogar V.Potter uni muomalaga kiritdi. Van Rensseler Potter o'zining "Bioetika – kelajakka ko'prik" nomli asarida gumanitar fanlar hamda tabiatshunoslar, biologlar faoliyatini insonlar hayotini kamshitmaslik va hayvonlarga nisbatan do'stona muomalada bo'lishga chaqirdi. Uning fikricha, "Yashab qolish ilmi nafaqat oddiy fan sifatida o'rganilishi, balki o'zida biologik bilim va umuminsoniy qadriyatatlarni birlashtirgan yangi donolik bo'lishi lozim. Shu sababli mazkur yo'nalishni bioetika deb atashni taklif etaman".[1] 1999-yili Kosto-Rikada bioetika masalalariga bag'ishlangan anjumanda V.Potter nutq

so'zlar ekan, "Men barchangizdan bioaxloqni mas'uliyat, kompetentlik talab qiluvchi hamda barcha madaniyatlarni o'zida mujassam etgan va gumanizmni targ'ib etayotgan yangi etika ta'liloti sifatida qabul qilishingizni so'rardim", degan fikrni bildiradi.

"Bioetika" atamasi ilmiy iste'moldagi nisbatan yangi atama hisoblanadi. Ushbu atamani paydo bo'lishi haqida ilmiy adabiyotlarda ikki xil qarash mavjud. Ayrim manbalarda ushbu atamani Amerikalik mashhur onkolog vrach Van Ranseler Potter (1911-2001) ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan, degan yondashuvlar mavjud va bu asosan rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ingliz va nemis tilidagi ayrim manbalarda esa, nemis ilohiyotchisi Frits Jaxr 1927-yil "Kosmos" jurnalida e'lon qilgan maqolasida "Bio-ethik" terminini ishlatgani ammo, amerikalik olim V.R.Potter tomonidan ushbu atama yaxshiroq ifodalanganligi aytib o'tilgan.

Har ikki holatda ham bioetikaning shakllanishi va rivojlanishida Potternning hissasi beqiyos. Potter insoniyat farovonlikka erishish uchun ijtimoiy va tabiiy fanlar o'z ilmiy yutuqlarini uyg'unlashtirishi lozimligini, "Omon qolish fani shunchaki fan emas, ikki muhim va zaruriy elementlar – biologik bilim va axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan yangi donishmandlik bo'lishi kerak"ligini ta'kidlaydi.

U o'zining "Bioetika – kelajakka ko'pri" kitobida "bioetika" atamasini ilmiy izohini berish bilan bir qatorda halqaro amaliyotda keng quloch yoygan etika bo'yicha fanlararo qo'mitalar tashkil etish g'oyasini ham ilgari surgan. Bu olimning asosiyligi g'oyasi Yer yuzida hayotni saqlab qolish maqsadida gumanitar fanlar va biologiya fani muammolarini o'zaro hamjihatlikda hal etishdan iborat bo'lgan. Uning fikricha, aynan "Normal va barqaror sivilizatsiyada insonning tur sifatida uzoq muddat yashab qolishi etika normalari tizimini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi". Etika normalarining mazkur tizimini V.R.Potter "global bioetika" deb nomlaydi. Global bioetikani tibbiyot etikasi, bioetika, atrof-muhit etikasiga bo'linishini ilmiy jihatdan isbotlab beradi. Potternning fikriga ko'ra, "Bioetika insoniyatning yashab qolishini ta'minlash va butun kishilik jamiyatining sog'lig'ini saqlash uchun tibbiyot etikasi bilan atrof muhit etikasi (ekoetika)ni jahon miqyosida birlashtiruvchi ko'pri bo'lishi lozim".

Hozirgi zamon etikasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida bioetika inson hayotini eng oliv axloqiy qadriyat deb biladi. Inson hayotini saqlash muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi. Bioetika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning axloqiy reguliyativi, uning madaniy negizini axloqiy javobgarlik tashkil etadi. U sotsial masalalalar bilan birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi niyatlarini yaratuvchi, inson xatti-harakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Darhaqiqat ilmiy kashfiyotlar va ilmiy taraqqiyotning, fan yutuqlarining inson turmush-tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatkichlari qanchalik yuqori bo'lishiga qaramasdan, "inson-tabiat-jamiyat" tizimi doirasidagi me'yor va mezon qoidalari muayyan ma'noda buzilishi bioetikani shakllantirishni davr talabi darajasiga ko'tardi. Bioetika xususan, biomuhit manfaatlarining oqilona nisbatini himoyasi muammolariga o'z maqsadlarini birlashtirgan holda, barcha tirik mavjudotning mavjudligiga, inson hayoti va salomatligi doiralaridan tashqariga chiqmaslikka, irsiyatini o'zgartirish masalalarida, avvalo, insoniylikni saqlab qolishga, irsiyatga qanday ma'naviy mezonlarga ko'ra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolari, fojiali harakatlarni oldini olishga qaratilgan dolzarb masalalarda o'z aksini topmoqda. Oddiy qilib aytganda, bioetikani me'yoriy jihatini, uning ma'naviy asosini "hayotga bo'lgan hurmat", "tiriklikni qadrlash", "hayotga ehtirom" tamoyili tashkil etadi. Bunda avvalo, axloqiylik, muhabbat va hayrixohlik hayot oldidagi hurmatning faqat ajralmas qismi hisoblanadi. Hayotga ehtirom etikasi, shuningdek, har bir xilqatning hayrixohlik va qadr-qimmatga qay darajada mosligi yoki uning uchun hayot muqaddas ekanligi, bu avvalo yashaydigan hamma xilqatlar oldidagi cheksiz mas'uliyatdir. Shu ma'noda bioetika inson hayotiy faoliyatining amaliy falsafasi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda ko'plab diniy jamoalarda, misol uchun, musulmonlar orasida bioetikadagi muammolar ham o'rganilmoqda. Misol tariqasida etika ilmi, islomda bioetika masalalari bo'yicha amalga oshirilgan V.Mamatdaliyev va S.Musayevlarning "Islom va bioetika", F.B.Hamidaning "Tibbiyot, biotexnologiya va musulmon axloqi", A.H.Aksekining "Islom axloqi va etika", I.Karimovning "Tibbiy etika va bioetika o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik" masalasiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari kabi bir qator ilmiy-tadqiqot natijalarini keltirish mumkin. Etikaning barcha tizimlari, diniy yoki diniy bo'lmasin, etika va qonun masalasi juda muhim masala hisoblanadi.

PEDAGOGIKA

Islomda bioetika – bu, asosan, islom huquqi va etikasi tarmoqlaridan biridir. Bioetik adabiyotlarga ko'ra va aynan islom bioetikasida, islom ulamolari ko'pincha islomning asosiy manbalariga havola qiladilar. Islom ta'limotiga ko'ra, islom jamiyati ta'minlashi kerak bo'lgan eng asosiy tamoyillardan biri buadolatdir. Islomiy biotetikaning asosiy tamoyillarini ishlab chiqishga bo'lgan ko'p urinishlarda asosiy urg'uni adolatga qaratish o'ta muhimdir. Bugungi kunda islomning etika-huquqiy an'anasi ham biotibbiyat qo'yayotgan savollarga javob izlashga asos bo'lib hizmat qiladi. Islom bioetika masalalari bo'yicha qaror qabul qilishda qandaydir mavhum emas, balki, bir tarafdan, ma'lum ma'nodagi siyosiy-huquqiy tizim asosida va mavjud ijtimoiy qoidalar asosida bo'ladi. Islomiy bioetikada har qanday yangi biotexnologik jarayonni qo'llashdan oldin uning shariatga to'g'ri kelishi yoki kelmasligi (uning halol yoki haromligi) haqidagi savol yuzaga chiqadi, olimlar va shifokorlar islom olimlari fikrini bilishga harakat qilishadi.

MUHOKAMA

Bioetika va uning qoidalariga amal qilish bo'yicha o'ziga xos yondashuvlar bo'lib, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda bioetika muammolari muvofiq qonunchilik asosida boshqariladi. Bioetika va inson huquqlari bo'yicha YUNESKO dekloratsiyasida inson haq-huquqlari va qadr-qimmati universal tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lib, amalda mavjud halqaro bioetika qo'mitasi bioetika me'yordi, axloqiy meyorlarga rioya qilgan holda ishlashni, shuningdek, texnogen taraqqiyot davrida ishlab chiqilayotgan yangi genetik usullarni, inson va tabiat, inson va atrof muhitning o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik kabi masalalariga oid bioetika muammolarini tadqiq va tahlil qiladi. Jumladan, tibbiyotda genetik kashfiyotlarning qo'llanilishida insoniylik, axloqiylik mezonlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror ekologik vaziyatni qaror toptirish, tabiiy atrof-muhit musaffoligini saqlash, transmilliy hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, barqaror ekologik xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligi va inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasi axloq va inson huquqlari o'tasidagi munosabatlarni tan oladi va ularga ko'ra eng yangi texnologiyalar, fan yutuqlar inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishga majbur. O'zbekiston Respublikasi bioetika va inson huquqlari dekloratsiyasi o'tasidagi munosabatlarni tan olishi bilan Universal bioetika va inson huquqlari bo'yicha dekloratsiyada belgilangan tamoyillarni amalga oshirish uchun barcha sa'y-harakatlar va ta'minlash uchun tegishli choralar ko'rishni kun tartibiga qo'yadi.

Bioetika va inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasida salomatlik va farovonlikni saqlashga qaratilgan bioetika tamoyillarining 16 tasi belgilangan bo'lib, ularda inson qadr-qimmati va inson huquqlari; yaxshilik va zarar; fan yoki jamiyat manfaatlari ustidan shaxsning ustun manfaatlari; mustaqillik (avtonomiya) va shaxsiy javobgarlik; rozilik; rozilik berish layoqatiga ega bo'limgan shaxslar huquqi; insonning zaifligini tan olish va daxlsizlikni hurmat qilish; shaxsiyat; inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlari hamda maxfiylik; tenglik,adolat va teng huquqlilik; diskriminatsiya va stigmatizatsiyaga yo'l qo'ymaslik; madaniy xilma-xillikka hurmat va pluralizm; hamjihatlik va hamkorlik; ijtimoiy mas'uliyat; imtiyozlarni adolatlari taqsimlash; kelajak avlodlarni himoya qilish; atrof-muhit, biosfera va bioxilma-xillikni muhofaza qilish masalalari o'z ifodasini topgan.

XULOSA

Xulosa qilganda, global axloq muammolari sirasiga kiruvchi bioetikaga oid muammolarni olamshumul ahamiyat kasb etishi va insoniyat taqdiri, qadriyatini belgilab turishi turli ta'lim, tarbiya sohalarining mushtarak manfaatlari asosida birlashuvini taqozo etadi. Bunda ilm-fan taraqqiyotining eng yangi yutuqlaridan vujudga kelgan ma'naviy muammolarni o'rganish va hal qilishga mo'ljalangan bioetika predmeti sifatida hayot va barcha tirik mavjudotga ma'naviy – tushunuvchan munosabatda bo'lish sifatida yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- С.А. Давтян - Ер.: ЕГМУ им. М. Гераци .- Биоэтика: Учебное пособие/, 2013, 257 стр., Кетова Т.Н. Биоэтика как этап развития гуманизма // Ученые записки СПбГМУ им. И. П. Павлова. 2015. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bioetika-kak-etap-razvitiya-gumanizma> (дата обращения: 16.11.2021).,
- Islas, D. S. C. (2018). An Analogical Hermeneutic Approach to Bioethics., Sass, Hans-Martin. "Bioethik – Bioethics." *Archiv Für Begriffsgeschichte*, vol. 56, Temporary Publisher, 2014, pp. 221–28, <http://www.jstor.org/stable/24361919>.
- Поттер В.Р. Биоэтика: мост в будущее. Киев: Сфера, 2002. 216 с.–с. 9

4. Қаххарова М. Биоэтика инсон ҳаётий фаолиятининг амалий фалсафаси // НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil 7-сон. –Б. 168.
5. Ибрагимов Х. Теоретические основы профессионального самовоспитания будущих учителей в педагогических училищах и колледжах.: Автореф. дисс.... докт. пед. наук. - М.:МПГУ 1996. –С. 39.
6. Тайлақов У.Н. Таълим муассасасининг ягона ахборот фазасини ташкил этиш. Халқ таълими Ж. 2011/6. -Б.20.